XALQ DEPUTATLARI PESHKU TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil 17 - noyabr VI-74-135-2-39-K/23 Peshku tuman hokimligi

Peshku tumani mahalliy budjetining 2023-yil 9 oylik daromad va xarajatlari ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi budjet kodeksining 27-28-moddalariga asosan Peshku tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi tomonidan taqdim etilgan tuman mahalliy budjetining 2023-yil 9 oylik ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Peshku tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi rahbari v.v.b I.Ostonovning Peshku tumani mahalliy budjetining 2023-yilning 9 oylikdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ta’kidlab o‘tilsinki, 2023-yilning 9 oylikda tuman mahalliy budjetining jami daromadlari 37 mlrd. 500,5 mln. so‘mni tashkil etdi.

O‘z navbatida, mahalliy budjetdan 187 mlrd. 841,4 mln. so‘m miqdorida xarajatlar amalga oshirildi, shundan 133 mlrd. 865,1 mln. so‘mi yoki 71 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlariga yo‘naltirildi.

3. Peshku tumani mahalliy budjetining 2023-yil 9 oylikda ijrosidan kelib chiqib:

- Peshku tumani mahalliy budjetining 2023-yil 9 oylikdagi asosiy daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

- Peshku tumani mahalliy budjetining 2023-yil 3 chorakdagi asosiy daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

- Peshku tumani mahalliy budjetining 2023-yil 9 oylikdagi xarajatlari miqdorlari

3-ilovaga muvofiq;

- Peshku tuman mahalliy budjetining 2023-yil 3-chorak qo‘shimcha manbalari hisobidan yo‘naltiriladigan mablag‘lari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.v.b (I.Ostonov) hamda tuman soliq inspeksiyasi (M.Ravshanov)ga:

- 2023-yil uchun belgilangan daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlarini choraklar va oylar kesimida taqsimotini belgilash va prognoz reja ko‘rsatkichlarini barcha soliq turlari kesimida to‘liq bajarilishini ta’minlash;

- budjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy budjetga qo‘shimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish;

- tuman hokimligi bilan birgalikda mahalliy budjetlarda har chorakda shakllanadigan qo‘shimcha manbalarning kamida 30 foizini tumanda “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari mablag‘larini shakllantirishga, joylarda infratuzilma obyektlarini rivojlantirishga, ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va tashrif bayonlarida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga hamda 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarga yo‘naltirish;

- mahalliy budjet parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlarni, xususan birinchi darajali to‘lovlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta’minlash;

- yil davomida hududiy mablag‘ oluvchilarning xarajatlar smetasi ijrosidan kelib chiqib, past samarali xarajatlarni maqbullashtirish, Davlat xaridlari axborot portalida amalga oshirilgan savdolar yakuni bilan iqtisod qilingan mablag‘larni belgilangan tartibda maqbullashtirish hamda kreditor qarzdorliklarni qoplashga yo‘naltirilishini ta’minlash;

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatish topshirilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Qosimov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **V.Qahhorov**

Xalq deputatlari Peshku tuman Kengashining
2023-yil 17-noyabrdagi
VI-74-135-2-39-K/23-son qaroriga
1-ilova

Peshku tumanining 2023-yil 9 oylik mahalliy budjet daromadlari

(mln.sum)

Daromadlar nomi	2023 yil 9-oylik			
	reja	ijro	Farqi (+,-)	Bajarilishi, %
DAROMADLAR JAMI	**31 858,8**	**37 500,5**	**5 641,7**	**117,7%**
1. Bevosita soliqlar	**15 101,8**	**15 366,5**	**264,7**	**102%**
Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq	9 163,8	9 210,6	46,8	101%
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar daromadidan olinadigan soliq	589,0	540,9	-48,1	92%
Yagona soliq to‘lovidan Davlat budjetiga ajratmalar, shu jumladan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha	5 349,0	5 615,0	266,0	105%
2. Bilvosita soliqlar	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0%**
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	0,00	0,00	0,0	0%
Aksiz solig‘i	0,00	0,00	0,0	0%
Jismoniy shaxslar tomonidan transport vositalari uchun iste’mol qilinadigan benzin, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gaz uchun soliq	0,0	0,0	0,0	0%
3. Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i	**16 645,0**	**20 853,9**	**4 208,9**	**125%**

Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan mulk solig‘i	4 741,5	4 713,9	-27,6	99%
Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 677,3	15 324,7	4 647,4	144%
Suv resurslardan foydalanganlik uchun solig‘i	794,0	344,7	-449,3	43%
Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari	432,3	470,7	38,4	109%
4. Boshqa daromadlar	**112,0**	**1 280,1**	**1 168,1**	**1143%**

Xalq deputatlari Peshku tuman Kengashining
2023-yil 17-noyabrdagi
VI-74-135-2-39-K/23-son qaroriga
2-ilova

Peshku tumanining 2023-yil 3-chorak mahalliy budjet daromadlari

(mln.sum)

Daromadlar nomi	2023 yil 3-chorak			
	reja	ijro	Farqi (+,-)	Bajarilishi, %
DAROMADLAR JAMI	**11 858,3**	**13 835,1**	**1 976,9**	**116,7%**
1. Bevosita soliqlar	**5 666,0**	**5 407,6**	**-258,4**	**95%**
Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq	3 213,0	2 964,6	-248,4	92%
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar daromadidan olinadigan soliq	202,0	136,0	-66,0	67%
Yagona soliq to‘lovidan Davlat budjetiga ajratmalar, shu jumladan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha	2 251,0	2 307,0	56,0	102%
2. Bilvosita soliqlar	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0%**
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	0,00	0,00	0,0	0%
Aksiz solig‘i	0,00	0,00	0,0	0%
Jismoniy shaxslar tomonidan transport vositalari uchun iste’mol qilinadigan benzin, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gaz uchun soliq	0,0	0,0	0,0	0%
3. Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i	**6 161,3**	**7 856,3**	**1 695,0**	**128%**

Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan mulk solig‘i	1 484,0	1 639,3	155,3	110%
Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 991,3	5 924,3	1 933,1	148%
Suv resurslardan foydalanganlik uchun solig‘i	457,0	58,3	-398,7	13%
Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari	229,0	234,4	5,4	102%
4. Boshqa daromadlar	**31,0**	**571,2**	**540,2**	**1843%**

Xalq deputatlari Peshku tuman Kengashining
2023-yil 17-noyabrdagi
VI-74-135-2-39-K/23-son qaroriga
3-ilova

Peshku tumanining 2023-yil 9 oylik mahalliy budjet xarajatlari ijrosi to‘g‘risida MA’LUMOT

(mln.sum)

Xarajatlar (sohalar) nomi	2023 yil 9 oylik			
	reja	ijro	Farqi (+,-)	Bajarilishi, %
XARAJATLAR JAMI	**190 794,3**	**187 841,4**	**-2 952,8**	**98%**
1. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari	**135 255,8**	**133 865,1**	**-1 390,7**	**99%**
1.1. Ijtimoiy soha	**99 196,4**	**97 530,1**	**-1 666,3**	**98%**
Ta’lim xarajatlari	36 909,2	36 113,6	**-795,6**	**98%**
- maktabgacha ta’lim	26 444,9	26 077,4	**-367,5**	**99%**
- xalq ta’limi	10 464,3	10 036,2	**-428,1**	**96%**
Madaniyat	2 233,4	2 151,5	**-81,9**	**96%**
Jismoniy tarbiya va sport	7 521,0	7 522,5	**1,4**	**100%**
Sog‘likni saqlash	52 532,9	51 742,6	**-790,3**	**98%**
1.2. Ijtimoiy himoya	**36 059,4**	**36 335,0**	**275,6**	**101%**
Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar	35 356,1	35 302,4	**-53,7**	**100%**

Ijtimoiy ko‘nikma markazi	75,7	64,4	**-11,3**	**85%**
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (Yoshlar va Ayollar jamg‘armasi)	627,6	968,2	**340,6**	**154%**
2. Iqtisodiyotga xarajatlar	**10 941,4**	**9 930,9**	**-1 010,5**	**90,8%**
4. Davlat hokimiyati, boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari	**7 920,6**	**7 942,3**	**21,7**	**100%**
5. O‘zini-o‘zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	**3 337,6**	**3 225,6**	**-112,0**	**97%**
6. Mahalliy budjet zahira jamg‘armasi	**1 711,3**	**1 634,9**	**-76,5**	**96%**
7. Boshqa xarajatlar	**31 627,5**	**31 242,6**	**-384,9**	**99%**

Xalq deputatlari Peshku tuman Kengashining
2023-yil 17-noyabrdagi
VI-74-135-2-39-K/23-son qaroriga
4-ilova

Peshku tuman mahalliy budjetining 2023-yil 3-chorak qo‘shimcha manbalarihisobidan yo‘naltiriladigan mablag‘lar to‘g‘risida ma'lumot

Budjetlar nomi	3-chorakda jami shakllangan qo‘shimcha manba miqdori	Shundan		shundan, jamg‘armalarga								
		yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushum	Daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga (kamida 30%)	Yoshlar jamg‘ar-masiga (kamida 15%)	Ayollar jamg‘ar-masiga (kamida 15%)	Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash jamg‘armasi (VM alohida qarori)	Daraxt va butalarning zararkunan-dalar hamda kasalliklariga qarshi kurashish tadbirlariga (2 foizgacha, PF-46)	MFY rag‘batlan-tirish jamg‘armasi (3%)	Bolalarni sog‘lom-lashtirishga ko‘maklashish jamg‘armasiga, oromgohlarni tayyorlash uchun (10%, PQ-427)	Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari 250 foiz har oylik ustama to‘lovlarga (oktyabr, dekabr)	Boshqa tadbirlar
Peshku tumani	**1 977**	390	1 587	476,1	238,0	238,0	29,0	31,7	47,6	158,7	29,2	338,5